



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 10 | pp. 61-67 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### MINTAQALARDA INNOVATSIYA JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISH XUSUSIYATLARI



**Bekmurodova Saodat Ikromovna**

Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti

Nodavlat ta'lim muassasasi mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mintaqalarda innovatsiya jarayonlarini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va xususiyatlari ochib berishga bag'ishlangan. Maqolada, hududlarda loyihalarga mablag'lar ajratish orqali innovatsion faoliyatni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalarining dolzarb muammolari va yechimlarlarini, sabab va oqibatlarini tahlil qilinib, bayon qilingan. Mualliflar tomonidan olib borilgan tahlil natijalaridan, statistik raqamlar innovatsion faoliyat tizimidagi o'sish kuzatilayotganligi haqida axborot berilgan. Ushbu natijalardan kelib chiqib, mavjud resurslardan to'laqonli foydalanilmayotganligi aniqlangan. Ushbu maqolada investitsiyalar jalb qilish orqali mintaqalarda innovatsiya jarayonlarini rivojlantirishning zarur ustuvor yo'nalishlar taklif etilgan.

**Аннотация:** Данная статья посвящена раскрытию современных тенденций и особенностей развития инновационных процессов в регионах. В статье анализируются и описываются текущие проблемы и пути их решения, причины и последствия современных тенденций развития инновационной деятельности путем направления средств на проекты в регионах. По результатам проведенного авторами анализа статистические показатели свидетельствуют о том, что наблюдается рост системы инновационной деятельности. По этим результатам было установлено, что имеющиеся ресурсы используются не в полной мере. В данной статье предложены необходимые приоритеты развития инновационных процессов в регионах путем привлечения инвестиций.

**Abstract:** This article is dedicated to revealing the modern trends and features of the development of innovation processes in the regions. The article analyzes and describes the current problems and solutions, causes and consequences of modern trends in the development of innovative activities by allocating funds to projects in the regions. Based on the results of the analysis conducted by the authors, the statistical figures indicate that the growth in the system of innovative activity is observed. Based on these results, it was determined that the available resources are not fully used. This article proposes the necessary priorities for the development of innovation processes in the regions by attracting investments.

**Kalit so'zlar:** innovatsiya, innovatsiya tizimi, innovatsiya faoliyati, texnologik taraqqiyot, innovatsion strategiyalar, zamonaviy tendensiyalar, real sektori, ijtimoiy-iqtisodiy samara, innovatsion hudud, yalpi ichki maxsulot, innovatsion loyiha.

**Ключевые слова:** инновации, инновационная система, инновационная деятельность, технологическое развитие, инновационные стратегии, современные тенденции, реальный сектор, социально-экономический эффект, инновационное пространство, валовой внутренний продукт, инновационный проект.

**Key words:** innovation, innovation system, innovation activity, technological development, innovation strategies, modern trends, real sector, socio-economic effect, innovation area, gross domestic product, innovation project.

**Kirish.** Yangi O'zbekiston sharoitida barcha sohalardagi yangiliklar, izlanishlar yangicha qarashlar va hozirgi zamon talablariga mos keluvchi eng asosiy masalalaridan biri bu innovatsion faoliyatdir. Bugungi kunda tildan tilga o'tib kelayotgan ushbu tushuncha juda keng tarmoqli hisoblanadi. Innovatsiya-bu o'zgarishlar, kashfiyotlar, yangi g'oyalar, yangi texnologiyalar, yangi tadqiqotlar va turli xildagi strategiyalarini qamrab olgan iqtisodiy rivojlanish, siyosiy muammolar, pedagogik o'zgarishlar va boshqa jarayonlarni birlashtiruvchi taraqqiyot mexanizmidir. Bugungi kunda mintaqalarni zamonaviy sharoitlarda rivojlantirishning eng muhimi innovatsiyaviy va texnologik yo'nalishi taraqqiyotidir. Mintaqalarda innovatsiya jarayonlarini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalarining dolzarb muammolaridan biri bo'lib, innovatsion faoliyatni kerakli sifat va miqdor darajasiga erishtirishdan iboratdir. Shuning uchun ushbu yo'l orqali mintaqalarda innovatsion faollikni ko'paytirish, zamonaviy texnologik bazani yaratish, ishlab chiqarilgan maxsulotlarni raqobatbardoshligini oshirish, mavjud resurslardan unumli foydalanish, sarf-xarajatlarini kamaytirish, samaradorlikka erishish orqali ularning xalqaro hamda mahalliy raqobatbardoshligini mustahkamlash mumkin bo'ladi.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** XIX asrda ilk bor ilmiy tadqiqotlar natijasida innovatsiya konsepsiyasi talqin etila boshlandi. Innovatsiya rivojlanishiga asos solgan juda ko'p olimlar izlanishlar olib borishgan. Jumladan xori j tadqiqotchilaridan N.Monchev, I.Perlaki, V.D.Xardmen, E.Mensfield, R.Foster, B.Tviss, Y.Shumpeter, E.Rodjers, E.I.Alyoxina va boshqalarning tadqiqot obyektlari va predmetiga ko'ra innovatsiya tushunchasini turlicha talqin qilganlar.[1] E.I.Alyoxina ta'rifiga ko'ra "innovatsiya - bu korxonaga yangi bozorlarni o'zlashtirish, ilg'or texnologiyalar va tashkiliy va boshqaruv faoliyatining zamonaviy shakllarini joriy etish imkonini beradigan yangi mahsulot, xizmat, texnologiyani yaratish yoki o'zgartirishni o'zida aks ettiradi[2] B.Tviss fikriga ko'ra, yangi g'oyalar iqtisodiy ma'nosiga ega bo'lishi bu innovatsion faoliyatlarining jarayonidir[3] J.Shumpeterning "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" asarida hali tanish bo'lmagan o'zgarishlarga yangicha qarashlar orqali tezda tayyor bo'lishni va javob qaytarish tendensiyalarini o'rganib chiqdi. Ushbu nazariyani o'rganib quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, iste'molchi uchun tanish bo'lmagan yangi mahsulotni yoki mavjud mahsulotlarga yangi sifat ko'rinishini tadbiiq etish. Ikkinchidan, tijoratbop maxsulotlar bo'lishi uchun yangi usullarni joriy qilish. Uchinchidan, yangi turdagi assortiment tovarlar orqali yangi bozorlarni ochish. To'tinchidan, yangicha oqimga kirish orqali iste'molchi uchun jilovkorlikni oshirish. Beshinchidan, monopol mavqega ega bo'lish uchun raqobatbardoshlikni kuchaytirish. Shuningdek, mahalliy olimlarimiz tomonidan ushbu soha bo'yicha tahlillar amalga oshirilgan, jumladan, R.A.Fatxuddinov quyidagicha ta'riflaydi: "Innovatsiya – boshqaruv ob'ektini o'zgartirish va iqtisodiy,

ijtimoiy, ekologik, ilmiy-texnik yoki boshqa bir samarani olish maqsadida joriy etilgan yangilikning yakuniy natijasi"[4]. Boshqa bir qator olimlarning fikr mulohazalarini umumlashtiradigan bo'lsak, odatda ular "innovasiya" va "yangilik", "yangilik kiritish" ma'nosini anglatishini bildirishgan[5]. R.V.Abdullaev va K.A.Xasanjanov fikrlariga ko'ra, "Innovasiya, ilmiy-texnik taraqqiyot ko'rinishining shakli hisoblanib, bilimlarning maxsus turi, yuqori rivojlangan mehnat natijasini tashkil etib, postindustrial jamiyatda insonlar hayotidagi yetakchi sohaga aylanib bormoqda".[6] Bu taxlil fikrlar mintaqalarda innovatsiya jarayonlarini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va xususiyatlari ochib berishga asos bo'ladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda innovatsion faoliyatning nazariy-uslubiy asoslari, innovatsion faoliyat va unga birlashgan tadbirkorlik sub'ektlarining mahsulotlar bozori taraqqiyotidagi roli, unga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganish kabi yo'nalishlarda ilmiy tadqiqot ishini olib borgan bir qator olimlarning ishlari nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida ilmiy tadqiqotlarning dialektika nazariyasiga taangan holda analiz va sintez, statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Bugungi kunda innovatsion faoliyatni rivojlanishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2017 yil 29 noyabrda «O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida»gi PQ3416-sonli qarori bilan innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etilgan. Vazirlik O'zbekiston Respublikasi mintaqalarning intellektual va texnologik salohiyatini oshirishga hamda innovatsion va ilmiy –texnika sohasini takomillashtiruvchi davlat va jamiyat hayotini rivojlantirishga qaratilgan davlatning nazorat organiga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyuldagi "2022 –2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son farmoni ijrosini ta'minlash bo'yicha innovatsion va ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida davlat byudjetidan moliyalashtiriladigan bir nechta tashkilotlar tashkil qilindi. Jumladan, Xalqaro molekulyar allergologiya markazi, "Yashnobod innovatsion texnoparki "DUK" Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi" DUK, "Yoshlar innovatsiya markazi" DUK, "Innovatsiya texnologiyalari markazi" MCHJ, "Innovatsiya, texnologiya va strategiya" markazi, Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, ilmiy-texnik axborot markazi, ilg'or texnologiyalar markazi, innovatsiyalarni joriy qilish va texnologiyalar transferi milliy ofisi kabi tashkilotlar mintaqalarda innovatsiya jarayonlarini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari va xususiyatlari ochib berishga yo'naltirilgan.

Hukumatimiz tomonidan mamlakatimizni innovasiyalar sohasidagi global reytingdagi ilg'or 50 ta mamlakatlar ro'yxatiga kiritishga qaratilgan strategik dastur tasdiqlandi. Shunday bo'lsada, mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlar ilm-fan va innovasiya sohasida davlat boshqaruvi mexanizmlarini takomillashtirish ishlarini jadallashtirish lozimligini ko'rsatmoqda.

**1-jadval**

**Hududlar bo'yicha ishlab chiqarilgan innovasion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar qiymati <sup>1</sup>**

Hududlar	2019	2020	2021	2022	2023	2023 yilda 2019 yilga nisbatan o'sish, marta
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>8023628,5</b>	<b>10688246</b>	<b>18543331</b>	<b>28871465</b>	<b>26811438</b>	3,3 marta
<b>quyi darajada o'sish (1-3 marta)</b>						
Qoraqalpog'iston Respublikasi	184689	1957151,8	3923446,9	129891	254893,7	1,3 marta
Andijon	1681320,5	885929,9	3765611,6	10186049	3640457,4	2,2 marta
Qashqadaryo	111150,2	203599,5	142251,4	93874,9	2644817,5	2,4 marta
<b>o'rta darajada o'sish (3-4 marta)</b>						
Buxoro	65135,7	77222,9	76618,8	195151,8	244209,1	3,7 marta
Namangan	213668,1	161646,7	234916,9	643885	843093,2	3,9 marta
Sirdaryo	122360,7	97857,6	162742,3	561972	472702,7	3,9 marta
Toshkent	800367	993662,9	1179511,2	2501418	2793716	3,5 marta
Toshkent sh.	3719430,4	5131868	7167597,6	11833067	12535844	3,3 marta
Surxondaryo	32663,8	42493,9	79840,3	297025,5	105804,2	3,2 marta
<b>yuqori darajada o'sish ( 4 martadan yuqori)</b>						
Jizzax	120623,6	68454,9	187997,1	238736	568291	4,7 marta
Navoiy	85398	77011	284976,9	965042,4	660513,1	7,7 marta
Samarqand	701546,9	638230	786736,7	329722,2	743668,1	6 marta
Farg'ona	104937,7	282215,7	412442,5	690858,2	636248	6 marta

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Shundan kelib chiqqan holda, hududlar bo'yicha ishlab chiqarilgan innovasion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmiga e'tibor beradigan bo'lsak, 2019-2023-yillar davomida respublikamiz bo'yicha 3,3 barobar oshganini ko'rishimiz mumkin. O'zbekiston Respublikasining innovasion mahsulotlar, ishlar va xizmatlar qiymati 2019-2023 yillar davomida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, viloyatlarida 1-3 marta oshgan, Buxoro, Namangan, Sirdaryo, Toshkent, Toshkent sh., Surxondaryo viloyatlarida 3-4 marta oshgan, Jizzax, Navoiy, Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo viloyatlarida 4-8 martaga oshgan.

2 jadval

**Qashqadaryo viloyatida yalpi hududiy mahsulotning o'sish dinamikasi va tarkibi**

№	Ko'rsatkich nomi	O'lchov birligi	2019-y.	2020-y.	2021 y	2022 y	2023 y	2019-2023-yillardagi o'sish, o'zgarish, %
1.	YaHM hajmi	mlrd so'm	32 399,30	36 010,60	42 560,20	49520,8 0	58404,5 0	180,3
2.	YaHMning tarmoq tarkibi:		100	100	100	100	100	x
a	sanoat	%	17,9	17,9	17	17,2	17,1	x
b	qishloq xo'jaligi	%	40,9	41,9	42,1	41,2	41,9	x
c	qurilish	%	6,4	6,2	6,6	7	6,9	x
d	xizmatlar	%	34,8	34	34,3	34,6	34,1	x
3	YaHM da kichik biznesning ulushi	%	70,8	71,1	69,9	68,1	68,4	x
4	Aholi jon boshi YaHM	ming so'mda	9 924,90	10 687,00	12 622,00	14372,6 0	16585,1 0	167,1

Mintaqalar rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlaridan biri yalpi hududiy mahsulot hisoblanadi. Qashqadaryo viloyatida yalpi hududiy mahsulotning qiymati 2023 yilda 58,4 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2019 yilga nisbatan 80,3 foizga o'sgan. Uning tarkibida asosiy salmoqni qishloq xo'jaligi egallab turibdi. Uning yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 41,9 foini tashkil qilib, keyingi besh yilda 1 foizga o'sgan xalos. Mos holatda jami sanoatda usish 0,8 foizni tashkil qilgan. Xizmat ko'rsatishning ulushi esa 34,1 foizni tashkil qilib, 2019 yilga nisbatan 1,7 foizga kamaygan. Sanoat va xizmat ko'rsatishning kam foizlarda o'sishi bozor iqtisodiyoti nuqtai nazaridan unga bo'lgan talabning kamligi bilan baholanadi. Talabning hosil bo'lishi aholi daromadlariga bog'liq bo'lib, Qashqadaryo

viloyatida aholi jon boshiga tug'ri keladigan daromad 16585,1 so'mni tashkil qilib, 2019 yilga nisbatan 67,1 foizga oshgan. Qashqadaryo aholi daromadlarining o'sish darajasi yuqori, ammo narxlar darajasining o'sishi real daromadning kamayishiga olib keladi. Bu esa innovatsion sanoat mahsulotlarga bo'lgan talabning kamayishini taqozo qiladi

**Xulosa va takliflar.** Mualliflar tomonidan olib borilgan tahlil natijalaridan, statistik raqamlar innovatsion faoliyat tizimidagi o'sish kuzatilayotganligi ammo hozirgi zamon shiddat bilan borayotgan davrda bu ko'rsatkichlar nisbatan zaifroq ekanligini tushunishimiz mumkin. Ushbu natijalardan kelib chiqib, mintaqamizdagi mavjud resurslardan to'laqonli foydalanilmayotganligidan past raqobatbardoshligi mahsulotlarimizning ishlab chiqarilishi iste'mol talabiga cheklovlar olib keladi. Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar investitsiyalar va davlat sarflarining yalpi milliy mahsulot hajmi ortishiga ta'sirining kuchayishi. Investitsiyalar oshgan sari YaMM hajmi birlamchi pul investitsiyalarga nisbatan katta miqdorda o'sadi.

Qashqadaryo viloyati iqtisodiyoti rivojlanishida investitsiyalar darjasi va ishchi kuchi malakasi muhim sanaladi. Shu bilan birga, iqtisodiyotning sanoat sohasini kengaytirish, hududning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib qayta ishlash sanoatini rivojlantirish zarur. Bunda, kapital hajmini oshirishda innovatsiya faoliyatini kengaytirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Investitsiya omili zamirida xorijiy mablag'lar ko'lamini oshirish uchun ishlab chiqarish innovatsiyasini rivojlantirish zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Xayitov Sh, Artikova D, Musayev J. Innovatsion menejment Buxoro-2020
2. Алёхина Е.И. Инновационная деятельность как элемент стратегического развития предприятия // Эффективное управление экономикой: проблемы и перспективы: сборник трудов IV Всероссийской научно-практической конференции; научн. ред. В. М. Ячменева. Симферополь: ИТ АРИАЛ, 2019. С. 362
3. Твисс Б. Управление научно-техническими нововведениями: сокр. пер. с англ. авт. предисл. и науч. ред. К.Ф. Пузыня. – М.: Экономика, 1989.– 271 с. С. 152
4. Xayitov Sh, Artikova D, Musayev J. Innovatsion menejment Buxoro-2020
5. Фатхудинов Р.А. Инновационный менеджмент.: Учеб. для вузов. – М.: ЗАО «Бизнес-школа «Интел-синтез»», 1998.- 17с.
6. Соколов Д.Д., Титов А.Б., Швабанова М.М. Предпосылки анализа и Формирование инновационной политики. – СПб.: ГУЭФ, 1997;
7. Хучек М. Инновация на предприятии и их внедрение.- М.: Луч, 1992г; Бернар И, Колли Ж.-К. Толковый экономический и финансовый словарь. В 2т. Пер. с фр. –М.: Международные отношения, Райзберг Б.А., Лозовский Л.Ш., Стародубцева Е.Б. Современный экономический словарь. – 2-е изд., исправ. – М.: ИНФРА – М, 1998 – 136с.
8. Алёхина Е.И. Инновационная деятельность как элемент стратегического развития предприятия // Эффективное управление экономикой: проблемы и перспективы: сборник трудов IV Всероссийской научно-практической конференции; научн. ред. В. М. Ячменева. Симферополь: ИТ АРИАЛ, 2019. С. 362

9. Твисс Б. Управление научно-техническими нововведениями: сокр. пер. с англ. авт. предисл. и науч. ред. К.Ф. Пузынуа. – М.: Экономика, 1989.– 271 с. С. 152
10. Стратегия инновационного развития России до 2020 года. М: Минэкономразвития России, 2010. С. 9
11. Mirziyayev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojatnomasi.-T.2018 19-21 betlar
12. Prezident huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari <https://stat.uz/uz/>
13. Internet resurslar <https://president.uz/oz/lists/view/1309>
14. Internet resurslar lug'ati [www.dis.ru](http://www.dis.ru)
15. <https://lex.uz/docs/-6811936>

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

